AQSHNING YAQIN SHARQDAGI STRATEGIYASI.

Qolqanov Nuriddin,
O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi dotsenti, PhD.
Toshqinboyev Davronbek
O’zbekiston xalqaro islom akademiyasi 4-kurs talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqola Yaqin Sharqning Xalqaro munosabatlar va AQSH tashqi siyosatida tutgan o’rni , ahamiyati hamda ta’sir kuchi haqida so’z yuritilgan. AQSHning ushbu mintaqaga kirib kelishi, rivojlanishi va mintaqada yetakchi o’rinni egallashi va nima sababdan mintaqada doimiy ravishda yetakchi ta’sir kuchlarini saqlab qolishga bo’lgan intilishlari yoritilgan. II jahon urushidan keyingi davr ya’ni Sovuq urush davrida mintaqada qo’llagan strategiyalari va muhim tarixiy jarayonlardagi muammolarni hal qilishdagi ishtiroki va mintaqada AQSH harbiy bazalar tizimi, XX asr oxiri va XXI asr davomida Yaqin Sharq mintaqasidagi Islomiy harakatlar va terroristik guruhlarning harakatlari, Falastin-Isroil masalasi kabi asosiy va yechilmay kelayotgan dolzarb muammolarning AQSH uchun ahamiyati bo’lgan muhim siyosiy voqealardagi qo’llagan strategiyalari qayd etilgan. So’nggi yillardagi AQSH tashqi siyosatining Yaqin Sharq bo’yicha belgilab olingan strategiyalari tarixiy sharoitlarga moslashib, o’zgarib borishi va mintaqaning kelajagi bo’yicha istiqbollari o’rganilgan.*

Kalit so’zlar: *AQSH, Yaqin Sharq ,Isroil, Qo’shma Shtatlar,Falastin-Isroil muammosi,Saudiya Arabistoni, Sovet Ittifoqi, harbiy bazalar, Tolibon,“Sahro bo’roni”operatsiyasi, G’azo inqirozi.*

Yaqin Sharq mintaqasi inson svilizatsiyasi tarixida eng qadimiy maskanlaridan biri bo’lib, diniy va madaniy ahamiyati yuqori, strategik jihatdan muhim joylashuvga ega, ulkan neft va gaz resurslariga boy muhim mintaqa hisoblanib, II Jahon urushidan keyin uning strategik ahamiyati yanada ortadi. Shu bilan birgalikda,

ushbu mintaqa iqtisodiy va siyosiy rivojlanish tendensiyalari bir-biridan katta farq qiluvchi davlatlar ya'ni rivojlangan boy arab davlatlari (Qatar, BAA, Quvayt, Saudiya Arabistoni), qashshoq mamlakatlar (Yaman, G'azo), siyosiy beqaror (Iroq, Suriya) kabi davlatlarning yonma-yon joylashuvi, mintaqa aholisining turli xil muhitlarda yashashi, xavfsizlikka tahdid qiluvchi terrorizm va islomiy harakatlar kabi jarayonlarning sodir bo'lishi va ushbu tahdidlarning saqlanib qolyotgani bilan ham Xalqaro munosabatlar va AQSH tashqi siyosatida ahamiyati katta.

AQSHning Yaqin Sharq bilan aloqalari 200 yildan oldin o'rnatilgan bo'lib, dastlab savdo aloqalari ko'rinishida 1767-yilda Smirna (Turkiyadagi qadimiy shahar) va Boston o'rtasida aloqalar o'rnatiladi. Smirna mahsulotlari Bostonda paydo bo'ladi va 1811-yilda Smirnada Amerika savdo uyi tashkil etilib, 1831-yilda esa Usmonli-Amerika kelishuvi imzolanadi.[1]

Amerika diniy guruhlari, ayniqsa Presviterianlar Yaqin Sharqda ,faqatgina, diniy, balki xayriya va tibbiy missiyalarini ham o'tkazdilar. 1820-yilda Amerikaning xorijiy missiyalar bo'yicha komissarlar kengashi tashkil etilgan bo'lib, mintaqadagi birinchi Amerika diniy missiyasini amalga oshiruvchisi edi. Lekin, bu missionerlar ko'p musulmonlar va yahudiylarni nasroniylikka qabul qildira olmaydi, bu narsa ularni ta'limga ta'sir o'tkazishiga olib keladi va mintaqada qator dunyoviy ta'lim muassasalarini ochishadi.[2]

AQSh II Jahon urushigacha "izolatsionizm" tamoyiliga amal qilgan holda faol tashqi siyosat olib bormagan. Yaqin Sharq mintaqasi AQSH tashqi siyosatida ustuvor strategik ahamiyatga ega bo'lmagan. Aloqalar , asosan, savdo-tijorat, missionerlik va ta'lim faoliyati bilan cheklangan. I Jahon urushi yakunida Usmonli imperiyasining qulashi natijasida, Yaqin Sharq mamlakatlari "mandat statuti" asosida Britaniya va Fransiya qo'l ostiga o'tadi. 1941-yil 7-dekabr kuni Yaponiyaning Pirl-

[1] Ismael T.Y. International Relations of the Contemporary Middle East. –NY.: Syracuse University Press,1986. –P.135

[2] Howard H.N. The United States and the Middle East In T.Y.Ismael (Ed), The Middle East in World Politics: A Study in Contemporary International Relations. – NY.: Syracuse,1974. – P.117-118

Xarborga hujum qilishi AQSH tashqi siyosiy strategiyalarini o'zgartirishga turtki bo'ldi, shuningdek, Yevropaning qudratli davlatlari (B.Britaniya, Fransiya) zaiflashishi, AQSHning dengiz qudratini oshishi va tez rivojlanayotgan sanoat uchun resurslar zarur edi. Yaqin Sharq neft va gaz resurslarni katta zaxirasiga ega bolgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda AQSH uchun Yaqin Sharq bo'yicha 3ta ustuvor strategiyasi bo'lgan, bular mintaqadan neftni erkin olib chiqish, Isroilning omon qolishi va xavfsizligini kafolatlash va sobiq Sovet Ittifoqining ta'sirini cheklash bo'lgan.[3]

AQSH II Jahon urushi boshida dunyodagi neft zaxirasining 60% ini ishlab chiqargan. Ammo II Jahon urushi oxirlariga borib, amerikalik mutaxassislar yaqin yillarda mamlakatdagi neft konlari tugab qolishidan xavotirda edi. Chet elda yangi neft manbalarini topish milliy xavfsizlikning ustuvor yo'nalishiga aylandi. 1945-yil fevral oyida AQSH prezidenti F.Ruzvelt va Saudiya qiroli Abdul Aziz as-Saud o'rtasida neft zaxiralarini kashf etish bo'yicha ikki tomonlama munosbatlar o'rnatilib, bu hozirgi kungacha davom etib kelmoqda.[4]

Isroil AQSHning Yaqin Sharqdagi eng yaqin hamkori va sherigi hisoblanadi. 1948-yil 14-mayda Isroil davlati tashkil topishi bilan, bir necha daqiqa o'tib rasman mustaqilligini tan oladi. Isroilni tan olish va rivojlantirishdan maqsad Trumen Qo'shma Shtatlarda yahudiylarning ovozlarini ta'minlash imkoniyatini ko'rgan. Strategik jihatdan Sovuq urushning dastlabki yillarida Sovet Ittifoqi va kommunizmning mintaqada yangi o'rinni egallashiga to'sqinlik qilish edi. Prezident Trumen qarori bilan Isroil boshqa arab davlatlaridan ajratib qo'yiladi.[5]

[3] U.S. Foreign Policy – Middle East & North Africa // https://world101.cfr.org/rotw/middle-east/us-foreign-policy

[4] U.S. Foreign Policy – Middle East & North Africa // https://world101.cfr.org/rotw/middle-east/us-foreign-policy

[5] U.S. Foreign Policy – Middle East & North Africa // https://world101.cfr.org/rotw/middle-east/us-foreign-policy

Qo’shma Shtatlarning Yaqin Sharqdagi yana bir strategik maqsadlaridan biri harbiy bazalar tizimi edi. Bundan ko’zlangan maqsad neftga boy arab davlatlaridagi savdo yo’llari va bosim o’tkazish nuqtalarini saqlab qolishdir, bu esa Qo’shma Shtatlarga mintaqaga bevosita va bilvosita ta’sir o’tkazish imkonini bergan. AQSH harbiy bazalari Amerika yordami bilan yoki dunyo bo’ylab aniq maqsadli operatsiyalar uchun o’qitish, tayyorlanish va harbiy texnikalar zaxirasi uchun foydalanadigan joylardir. Ular jamoatchilikka yopiq holda tashkil etilgan.[6]

AQSH Yaqin Sharq harbiy ishtiroki cheklangan bo’lib, II Jahon urushidan keyin Saudiya, Bahrayn davlatlarida minimal darajada harbiy-dengiz kuchlaridan foydalanish to’g’risida shartnoma tuziladi.[7]

Shuni ta’kidlash kerakki, Sovuq urush boshlangandan keyin Qo’shma Shtatlar dunyoda hamda Yaqin Sharq mintaqasida ham bo’lishi mumkin bo’lgan Sovet Ittifoqi ekpansiyalariga qarshi bir qator strategiya va taktikalarni ishlab chiqadi. Tabiiyki Sovet Ittifoqi arab davlatlariga iqtisodiy va harbiy sohalarda yordam berdi. Ammo Qo’shma Shtatlar tomonidan izchil oshirib borilgan harbiy va iqtisodiy harajatlarga Sovet Ittifoqining iqtisodiy qudrati yetmay, 1990-yillarning boshlariga kelib parchalanib ketadi. Buning natijasida AQSH dunyoda yagona “superpower” davlatga aylanadi. Lekin bu narsa muammolarni hal qilish yetarli bo’lmadi. Isroil davlatini tuzilishi va unga parallel ravishda Falastin davlati tashkil etilmay qolishi mintaqa uchun yechilmay kelayotgan muammo aylandi. Bu esa bir necha arab-isroil urushlariga olib keldi.

1990-yillarning boshiga kelib mintaqada Iroq AQSH uchun muammoli davlatga aylandi. U tomonidan bosib olingan Quvayt neftga boy, joylashuvi ham strategik jihatdan muhim joy hisoblangan. Albatta keying tahdid Saudiyaga edi. Buni oldini olish uchun Qo’shma Shtatlar tomonidan “Sahro bo’roni) operatsiyasi 1 yil o’tib

[6] Atallah S.Al Sarhan United States Foreign Policy and the Middle East // Open Journal of Political Science. – Volume / № 7. – 2017. – P.454-472

[7] U.S. Foreign Policy – Middle East & North Africa // https://world101.cfr.org/rotw/middle-east/us-foreign-policy

fevral oyida o'tkaziladi. 43 kun davom etgan operatsiyada AQSH 697,000 iroqlik kuchlarni bosib oladi. "Sahro bo'roni" operatsiyasi Qo'shma Shtatlarning urush strategiyalarini yangi texnologiyalar boyitib borish, yangi taktika va doktrinalarni paydo qilish va yangilash taqozo etdi. Operatsiyada GPS, aniq boshqariladigan qurollar va sun'iy yo'ldosh aloqasidan foydalangan birinchi haqiqiy "kosmik urush" sifatida tan olingan. Ushbu texnologiyalardan foydalanish muvaffaqiyat kaliti sifatida rol o'ynagan.[8]

AQSHning Yaqin Sharqdagi strategiyasining muammolaridan biri bu – islomiy qarshilik harakatlari va terrorizmga qarshi kurashdir.

1990-yillarda Afg'onistonda Tolibon islomiy guruhlari paydo bo'ldi. Ular 1996-2001-yillar oraligida Afg'onistonni boshqargan. Terroristik guruh hisoblangan Al-Qoida 1998-yil Sharqiy Afrikadagi elchixonalarni bombardimon qilishga mas'ul 2001-yil 11- sentabrda esa Nyu Yorkda terakt sodir etishda ayblanib, kichik Jorj Bush tomonidan "terorrizmga qarshi urush" e'lon qiladi.[9]

Qo'shma Shtatlar zamonaviy davrda Afg'oniston va Iroqdagi urushlarni tugatishga, Yaqin Sharqdagi harbiy harajatlarni kamaytirishga va tanqis resurslarni Osiyoga yo'naltirishga harakat qildi. Global va mingtaqaviy tendensiyalar Amerikaning global strategiyasida Yaqin Sharq ustuvorligini kamaytirish istagini kuchaytirdi. Yaman va Liviyadagi raqobatchi jangovarlar kuchlarning harakati, Falastin-Isroil muammosi, Isroilning Saudiya va BAA o'rtasida xavfsizlik masalalari, bundan tashqari, COVID-19 pandemiyasi tufayli energiyaning pasayishiga olib kelib, moliyaviy muammolarni keltirib chiqardi. Eronga qo'yilgan sanksiyalar samarali bo'lib chiqmadi. Qo'shma Shtatlar uchun tarixan samarali bo'lib kelgan yo'l bu –

[8] 30 years later, Desert Storm remains a powerful influence on Air, Space Forces // https://www.af.mil/News/Article-Display/Article/251238/30-years-later-desert-storm-remains-a-powerful-influence-on-air-space-forces

[9] The Taliban in Afghanistan – Council on Foreign Relations // https://www.cfr.org/afghanistan/taliban-afghanistan/p10551

diplomatiya ya'ni, o'zaro hurmat va yaxshi his tuyg'ular asosidagi chin muloqot va aniq chegaralar muhim ahamiyatga ega.[10]

AQSHning mintaqada yuritgan siyosati bilan bog'liq muammolar bu: mintaqaviy barqarorlikning ta'rifi bo'lgan fundamental adolatning buzilishini e'tiborsiz qoldirishi, bu esa beqarorlikni keltirib chiqarmoqda, Isroilning mintaqaviy tajovuzkorligi, gegemonlik ambitsiyalari va yadroviy arsenalining jazosiz qolishi, mintaqadagi jiddiy inson huquqlarini buzilishiga noadekvat munosabatda bo'lishi, mintaqada AQSHning ommaviy qurol savdosi mahalliy iqtisodiyotni yanada buzmoqda.[11]

Shu yil 7-oktabr kuni boshlangan Hamas va Isroil o'rtasidagi "G'azo inqirozi"

AQSH strategiyalariga ta'sir qilmay qolmaydi. Bunga qarshi Yaqin Sharq bo'yicha 5ta strategiyani belgilab oldi:

- AQSHning 2021-yilda Afg'onistondan qo'shinlarini olib chiqib ketishi va AQSH mudofaa pozitsiyasini qisqartirishi ortidan mintaqada Qo'shma Shtatlarga bo'lgan ishonchni bildirish.
- Xitoy ekspansiyasiga qarshi kurash.
- Rossiyaning Ukrainaga keng ko'lamli bostirib kirishini oldini olish, bu esa Yaqin Sharqqa ta'sir qiladi.
- Eronning mintaqaviy tajovuziga qarshi kurash.
- Isroil va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi kelishuvni mustahkamlash.12

[10] What to do – and what not to do – in the Middle East // https://www.brookings.edu/articles/what-to-do-and-what-not-to-do-in-the-middle-east

[11] U.S.Strategic Reach in the Middle East – Institute for Policy Studies // https://ips-ds.org/us_strategic_reach_in_the_middle_east

[12] The post-October 7 US strategy in the Middle East is coming into focus – Atlantic Council // https://www.atlanticcouncil.org/blogs/new-atlanticist/the-post-october-7-us-strategy-in-the-middle-east-is-coming-into-focus

Yuqoridagi holat va jarayonlar asosida AQSHning Yaqin Sharq strategiyalari haqida quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

*Birinchidan,*Yaqin Sharq strategik jihatdan AQSH tashqi siyosatida muhim mintaqa bo'lib qolaveradi, chunki mintaqa neft va gazning katta zaxiralarini mavjudligi, mintaqada hamda mintaqaga qo'shni hududlarga siyosiy jarayonlarni izdan chiqaruvchi beqarorlik va nizolarni keltirib chiqaruvchi harakatlarning o'tkaza olish xavfining mavjudligi va uni nazorat qilish uchun ham zarur.

Ikkinchidan, Yaqin Sharq oxirgi 60-70 yil ichidagi dunyodagi eng siyosiy beqaror mintaqalardan biri bo'lib kelmoqda. Urushlar,nizolar va qarshilik ko'rsatish kabi jangovar harakatlarning tez-tez hamda doimiy sodir bo'lib turishi AQSh va uning lobbichilik faoliyati uchun foydali.

Uchinchidan, AQSHning "bosim o'tkazish" emas , balki diplomatik yo'l muammolarni hal qilishi lozim. Chunki mingtaqada qudratli davlatlar(Turkiya,Saudiya,Eron)ning izchil rivojlanib borayotganligi, kadrlar tizimida sifat o'zgarib, demokratik shaxslarning hokimiyat tepasiga kelyotganligi, ular bilan kelisha olish mumkinligini ko'rsatmoqda.

To'rtinchidan, So'nggi yillarda Osiyo-Tinch okeani mintaqasining Yaqin Sharq mintaqasidan strategik jihatdan ahamiyatini oshib borishi, chunki mintaqada siyosiy beqarorlik jarayonlarining kam uchrashi, muhim savdo yo'llarining o'tganligi, barqaror rivojlanayotgan davlatlardan tashkil topishi va ushbu davlatlarning Xitoy bilan iqtisodiy yaqin hamkorligi, Xitoyning mintaqa gegemonligiga intilishi hamda mintaqaning AQSH hududiga yaqinroq joylashgani ham uning ahamiyatini oshirib yubormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Atallah S.Al Sarhan United States Foreign Policy and the Middle East // Open Journal of Political Science. – Volume / № 7. – 2017. – P.454-472

1. Ismael T.Y. International Relations of the Contemporary Middle East. – NY.: Syracuse University Press,1986. –P.135

2. Howard H.N. The United States and the Middle East In T.Y.Ismael (Ed), The Middle East in World Politics: A Study in Contemporary International Relations. – NY.: Syracuse,1974. – P.117-118

3. The post-October 7 US strategy in the Middle East is coming into focus – Atlantic Council // https://www.atlanticcouncil.org/blogs/new-atlanticist/the-post-october-7-us-strategy-in-the-middle-east-is-coming-into-focus

4. The Taliban in Afghanistan – Council on Foreign Relations // https://www.cfr.org/afghanistan/taliban-afghanistan/p10551

5. U.S. Foreign Policy – Middle East & North Africa // https://world101.cfr.org/rotw/middle-east/us-foreign-policy

6. U.S.Strategic Reach in the Middle East – Institute for Policy Studies // https://ips-ds.org/us_strategic_reach_in_the_middle_east

7. What to do – and what not to do – in the Middle East // https://www.brookings.edu/articles/what-to-do-and-what-not-to-do-in-the-middle-east

8. 30 years later, Desert Storm remains a powerful influence on Air, Space Forces // https://www.af.mil/News/Article-Display/Article/251238/30-years-later-desert-storm-remains-a-powerful-influence-on-air-space-forces